

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA TADBIRKORLIKNI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Karimov Behzodjon Ilhomovich
TDIU, mustaqil izlanuvchi
bekhzodjon.karimov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda kam ta‘minlangan aholi qatlamini davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng miqyosda jalb etish masalalari, xususan kreditlashning o‘rni tahlil qilingan, bu borada tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kam ta‘minlangan aholi qatlami, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik ko‘nikmalari, kreditlash

Abstract. This article, as one of the main areas of state support for the low-income population in our country, analyzes the issues of involving them in business activities on a large scale, in particular the role of lending, and also develops recommendations and conclusions in this regard.

Key words: low-income population, social protection, entrepreneurial activity, entrepreneurial skills, lending

Аннотация. В данной статье, как одно из основных направлений государственной поддержки малообеспеченного населения в нашей стране, проанализированы вопросы вовлечения их в предпринимательскую деятельность в широком масштабе, в частности роль кредитования, а также разработаны рекомендации и выводы по этому поводу.

Ключевые слова: малообеспеченное население, социальная защита, предпринимательская активность, предпринимательские навыки, кредитование

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida aholini, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng ko‘lamda jalb qilish ishsizlik muammosini hal qilishning va aholi turmush farovonligini oshirishning muhim omili ekanligi qayd etilgan [1].

Biroq aholining ma‘lum qismida, shu jumladan, kam ta‘minlangan aholi qatlamida tadbirkorlik ko‘nikmalari shakllanmagan. Bu esa ularning tadbirkorlik sohasiga keng ko‘lamda jalb etishga to‘sqinlik qiladi.

Dunyo mamlakatlarida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida kam ta‘minlangan aholi qatlami davlatning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi orqali

tadbirkorlik sohasiga jalb etiladi. Buning sababi shundaki, aholining mazkur qatlamida boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun pul mablag'lari va moddiy aktivlar yetarli emas. Bundan tashqari, ularning to'lovga qobilligi juda past bo'lib, tijorat banklaridan kredit olish imkonini bermaydi.

Hozirgi davrda respublikamizda kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik sohasiga jalb etish uchun ularni bepul tarzda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, ularga davlat mablag'lari hisobidan imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilgan. Buning ustiga, mahallabay ishlash tizimi joriy etilgan bo'lib, ushbu tizim kam ta'minlangan aholi qatlamiga manzilli moliyaviy yordam ko'rsatish, ularni tadbirkorlik sohasiga jalb etish imkoniyatlarini aniqroq baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik sohasiga jalb etish masalasining nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar – Y. Shumpeter, M. Yunus, A. Joli, J. Shanel-Reyno, E. Blua, N. Figurovskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Avstriyalik iqtisodchi olim Y. Shumpeterning fikriga ko'ra, innovatsiya tadbirkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy uyg'unligidir va davlat tomonidan innovatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlanishi lozim [2].

Bangladeshning Graminbankini tashkil qilgan, Nobel mukofotining sohibi, taniqli iqtisodchi olim M. Yunus kam ta'minlangan aholi qatlamini kreditlash sohasida o'ziga xos bo'lgan inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Xususan, uning tashabbusi va taklifi bilan kam ta'minlangan aholi qatlamini guruh javobgarligi asosida kreditlash shakli, garovsiz kreditlash turi "Graminbank" amaliyotiga joriy etildi. M. Yunusning xulosasiga ko'ra, endi ish boshlayotgan aholining subyektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi [3].

Fransuz iqtisodchi olimlari J. Shanel-Reyno va E. Bluaning xulosasiga ko'ra, kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlikka jalb qilishning nisbatan samarali usuli bo'lib, kichik va o'rta korxonalar tashkil etish hisoblanadi [4]. J. Shanel-Reyno va E. Bluaning ushbu xulosasi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining tahliliga asoslangan va shu jihatdan ishonchli hisoblanadi.

Rossiyalik iqtisodchi olimi N. Figurovskayaning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalash jarayoni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi lozim. Bunda asosiy e'tibor davlat byudjetidan resurslar ajratish va bonifikatsiyaga qaratilishi kerak [5]. Fikrimizcha, N. Figurovskayaning fikri ahamiyatga molik. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi davlatning ushbu jarayonga aralashuvini zaruriy holatga aylantiradi. Vaholanki,

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari kam ta'minlangan aholi qatlami bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Mahalliy iqtisodchi olim D. Tadjibayevaning ilmiy ishlarida mikromoliyalashning nazariy va metodologik asoslari tadqiq qilingan va bir qator ilmiy xulosalar shakllantirilgan, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. (shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joizki, mikromoliyalash, asosan, jismoniy shaxslar uchun qaratilgan bo'lib, u kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishdagi eng asosiy moliyaviy vositalardan biri hisoblanadi.). D. Tadjibayeva haqli ravishda e'tirof etadiki, mikromoliyalash tashkilotlarining tijorat banklari bilan hamkorligi nafaqat tijorat banklariga, balki ushbu tashkilotlarning o'zlari uchun ham foydalidir. Bu, birinchi navbatda, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ayrim mamlakatlarda qonun yo'li bilan depozitlar jalb qilish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va fond birjalarida joylashtirishni taqiqlab qo'yilganligi, fond bozorining yetarli rivojlanmaganligi kabi iqtisodiy cheklovlar mavjud bo'lgan sharoitda, mikromoliyalash tashkilotlariga moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini bermaydi [6].

Mahalliy iqtisodchi olim J. Isakovning xulosasiga ko'ra, oxirgi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadlariga berilgan kreditlar hajmining yuqori darajada oshganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashga katta e'tibor qaratilayotganligi; respublikaning qator tumanlarida xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotining takomillashmaganligi natijasida mazkur sohaga tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmining kichik bo'lganligi. Ta'kidlash joizki, tahlil qilingan davr mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik biznes subyektlariga xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadlariga berilgan kreditlar miqdorining o'sish tendensiyasi saqlanib qoldi. Biroq xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun berilgan kreditlar miqdori va darajasining tuman va shaharlar o'rtasida keskin farqlanishi kuzatilmoqda [7]. Shu o'rinda aytib o'tmoqchimizki, kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda, xizmatlar sohasi nihoyat darajada muhim rol o'ynaydi.

Yana bir mahalliy iqtisodchi olim I. Raxmonov o'zining ilmiy-tadqiqot ishida mamlakat tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini tahlil qilgan va ushbu amaliyotni takomillashtirish maqsadida respublika Markaziy bankining tijorat banklarining bir yilgacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkalarini 50 foizga pasaytirish va mikromoliyalash tashkilotlarining tijorat banklaridagi muddatli depozitlarini Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomasidan ozod qilish yo'li bilan tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va shu orqali banklar tomonidan kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan mikrolizing va mikrokredit xizmatlari hajmini oshirishni taklif qilgan [8]. Chunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, mikromoliyaviy xizmatlar, asosan, jismoniy shaxslarga qaratilgan bo'lib, ularning orasida kam ta'minlangan aholi qatlami katta qismni tashkil qiladi.

E'tirof etish joizki, mahalliy iqtisodchi olimalardan N.Urmanova tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini hamda aholini moliyalashtirishning tijoriy manbalaridan foydalanishni oshirish muammosini hal qilish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning xulosasiga ko'ra, mazkur muammoni hal qilish uchun tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish lozim: kafolatlashning turli instrumentlaridan (to'lovlarni deponentlash hisobraqami, mikrokreditlar "pul"i va boshqalar) foydalangan holda kredit munosabatlarini rivojlantirish; nobank kredit tashkilotlariga tijorat banklarining agenti funksiyasini bajarishga ruxsat berish; tijorat banklarining filiallar tarmog'idan mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanish; tijorat banklari tomonidan mikrokredit tashkilotlarining mijozlariga qo'shimcha xizmatlar (depozit va lizing xizmatlari, pul o'tkazmalari) ko'rsatish [9]. Darvoqe, nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan, mikromoliyaviy tashkilotlarning rivojlanishi kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida kreditlashda ijobiy siljishni yuzaga keltiradi.

Boshqa bir mahalliy iqtisodchi olim I. Alimardonovning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevraldagi "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2768-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasining resurs bazasini O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 500 mln AQSH dollaridagi mablag'lari hisobidan ko'paytirib, ushbu mablag'lardan kichik biznes subyektlarining eksport va import operatsiyalari uchun banklar tomonidan beriladigan kreditlarning kafolati sifatida foydalanish lozim [10]. Fikrimizcha, I.Alimardonovning ushbu taklifi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, 2017-yilning sentyabr oyida valyuta siyosatining liberallashtirilishi munosabati bilan milliy valyutamiz - so'mning AQSH dollariga nisbatan qadri qariyb ikki barobar pasaydi. Bu esa, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasining so'mda shakllantirilgan resurslarining keskin qadrsizlanishiga sabab bo'ldi. Kafolat jamg'armasi kabi tashkilotlar kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur ahamiyatga ega bo'lib, bu tabiiy ravishda, asosan, kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan kam ta'minlangan aholi qatlamini yanada qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhidan ko'rinib turganidek, ham xorijlik, ham mahalliy iqtisodchi olimlar kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga keng miqyosda jalb etishga kreditlash tizimining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tishgan.


METODOLOGIYA

Tadqiqotning maqsadi kam ta'minlangan aholi qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish holati, bunda kreditlash tizimidan foydalanishning amaldagi tahlili asosida ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va rasmiy internet ma'lumotlari undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi.

Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni kreditlash kam ta'minlangan aholi qatlamida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamizda kichik tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning miqdoriga e'tibor qaratamiz.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga 2019-2021-yillarda berilgan kreditlarning miqdori, mlrd so'm [11]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar miqdori 2020-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan, ammo 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar 2020-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan, aholining bandligini

ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 281 mingdan ortiq loyihaga jami 48,4 trln so'm kredit mablag'lari ajratildi. Shu bilan birga, 2020-yilda xorijiy kredit liniyalari mablag'lari hisobidan tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining qariyb 17 mingta loyihasini moliyalashtirish uchun 2,9 mlrd AQSH dollari Mazkur kredit mablag'larining 1 925 mln. AQSH dollari (65 foiz) sanoat sohasiga, 479 mln. AQSH dollari (16 foiz) qishloq xo'jaligi sohasiga, 291 mln. AQSH dollari (10 foiz) savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga hamda 255 mln. AQSH dollari (9 foiz) xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirildi. 2019-yilda: 2,1 mlrd AQSH dollari, 12 mingta loyiha miqdorida, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 14 mingtadan ortiq loyihaga 2,5 mlrd AQSH dollari (84 foiz) miqdorida (2019-yilda: 1,57 mlrd AQSH dollari, 74 foiz) kreditlar ajratildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida so'nggi 3 yil davomida jami 15,7 trln so'mdan ko'p imtiyozli kreditlar ajratildi va bu orqali 633 mingdan ziyod oilalar tadbirkorlikni yo'lga qo'yib, daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi. Boshqacha qilib aytganda, respublika bo'yicha o'rta hisobda har ming xonadonning 94 tasi ushbu dasturlar doirasida o'z tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'ydi. 2020-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 215 mingta loyihaga jami 6,1 trln so'mdan ortiq imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi. Jumladan:

- "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 184 mingga yaqin aholi va tadbirkorlik subyektlariga jami 4,8 trln so'm;

- hunarmandchilikni rivojlantirish, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini kengaytirish, mahalliy hokimliklar hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar doirasida 25 mingga yaqin loyihalarga 785,7 mlrd so'm;

- yoshlarning biznes tashabbuslari va loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 818 ta loyihaga 427,8 mlrd so'm;

- xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish maqsadlariga Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hisobidan 4 615 ta loyihaga 95,7 mlrd so'm miqdorida kreditlar berildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan kreditlarning 2,5 trln so'mi (41 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 3,6 trln so'mi (59 foizi) o'zini o'zi band qiluvchi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Koronavirus pandemiyasi sababli moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning dasturlar doirasidagi 1,1 trln so'mlik kreditlarining to'lov muddati 6 oyga (2020-yil 1-oktyabrga qadar) uzaytirildi.

2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 436 mingdan ortiq loyihaga jami 59,6 trln so'm kredit mablag'lari ajratilgan.

2021-yilda xorijiy kredit liniyalari mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlarining qariyb 13,6 mingta loyihasini moliyalashtirish uchun 2,2 mlrd AQSH dollari miqdorida, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 14 mingtadan ortiq loyihalarga 1,9 mlrd AQSH dollari (86 foiz) miqdorida kreditlar yo'naltirilgan. Mazkur kredit mablag'larining 1 420 mln. AQSH dollari (65 foiz) sanoat sohasi, 258 mln. AQSH dollari (12 foiz) qishloq xo'jaligi sohasi, 253 mln. AQSH dollari (12 foiz) xizmat ko'rsatish sohasi hamda 250 mln. AQSH dollari (11 foiz) savdo va umumiy ovqatlanish sohasi subyektlariga berilgan.

2021-yilda Markaziy bank tomonidan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida tijorat banklari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijrosi tizimli ravishda monitoring qilib borilmoqda. Bu borada asosiy e'tibor mahalliy hokimliklar bilan birgalikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida yangi ish o'rni yaratadigan, mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish hajmini oshiradigan kichik loyihalar hamda aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va doimiy daromad manbalarini shakllanishiga xizmat qiladigan yo'nalishlarga kreditlar ajratishga qaratilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida so'nggi 4 yilda jami 24,3 trln so'mdan ko'p imtiyozli kreditlar ajratilgan va bu orqali 983 mingdan ziyod oilalarni tadbirkorlikni yo'lga qo'yib, daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi. Respublika bo'yicha o'rta hisobda har ming xonadonning 110 tasi ushbu dasturlar doirasida o'z tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'ydi.

2021-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 352 mingta loyihaga jami 8,6 trln so'mdan ortiq imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi. Xususan, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 150 mingtadan ortiq loyihaga 3,5 trln so'm va xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini imtiyozli moliyalashtirish maqsadida 206 mingta loyihaga 3,8 trln so'm kreditlar yo'naltirildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan kreditlarning 1,8 trln so'mi (20 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 6,8 trln so'mi (80 foizi) o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. 2021-yilda dasturlar doirasidagi kreditlarning 37,8 foizi Agrobank, 37,1 foizi Xalq banki, 23,9 foizi Mikrokreditbank va 1,2 foizi Turonbank tomonidan ajratilgan.

Dasturlar doirasida kredit ajratish yuzasidan banklarning tegishli qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish va kredit ajratishda inson omilini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbayini

kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘yicha tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisining o‘ziga birlashtirilgan mahallada istiqomat qilayotgan qarz oluvchiga beradigan xulosasi asosida kreditlar:

- to‘liq raqamlashgan holda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali ajratish;

- ajratilgan kreditlar hisobiga tovar va xizmatlarni bozor tamoyillari asosida erkin sotib olish yoki sotish yagona elektron platformada yaratilgan “marketpleys” tizimi yordamida amalga oshirish;

- hokim yordamchilari o‘z mahallalarida Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib borishi hamda kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishi bo‘yicha sektor rahbarlari va tijorat banklari bilan birgalikda tegishli choralarni ko‘rishni belgilab berildi.

Dasturlar doirasida 2021-yilda ajratilgan kreditlarning 1,7 trln so‘mi chorvachilik, 2,0 trln so‘mi xizmat ko‘rsatish, 2,5 trln so‘mi ishlab chiqarish sohalariga, 1,2 trln so‘mi issiqxona tashkil etish va rivojlantirishga hamda 1,2 trln so‘mi bog‘dorchilik, parrandachilik, quyonchilik, hunarmandchilik kabi maqsadlar uchun yo‘naltirildi.

Umuman olganda, kam ta‘minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlash borasida yuqorida keltirilgan ijobiy siljishlar bilan birga bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, quyida ular xususida o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash amaliyotida berilgan kreditlarning imtiyozli davrida faqat kreditning foizi to‘lanadi, kreditning asosiy qarz summasi to‘lanmaydi.

Markaziy bankning 2003-yil oktyabrdagi “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi nizomida, tijorat banklarining ichki Kredit siyosatida ushbu tartib o‘z aksini topgan. Ammo bironta hujjatda kreditning imtiyozli davrida to‘lovlarni amalga oshirmaslik to‘g‘risida talab yoki ruxsat mavjud emas.

Tijorat banklari kredit oluvchi tadbirkorlik subyektiga ssuda schyoti ochgan kundan boshlab kreditga foiz hisoblashni boshlaydi. Bunda tijorat bankini kredit hisobiga tovar olindimi, olinmadimi, xorijiy valyutadagi mablag‘ kelib tushdimi, tushmadimi qiziqitirmaydi. Bu borada kreditlash amaliyotida yuz bergan bir misolni keltirib o‘tmoqchimiz: Agrobankni mijozi bo‘lgan fermerlarga so‘mda berilgan kreditlar Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki orqali AQSH dollariga aylantirib xorijdan qoramol olish uchun xorijlik mol yetkazib beruvchiga to‘lab berilgan. Lekin qoramol kelmagan. Fermerlar esa haqiqatda ishlatmagan, foyda ko‘rmagan kreditiga 18 oy mobaynida foiz to‘lagan.

Berilgan kreditni muddatidan oldin qaytarish mumkinligi kredit shartnomasida ko‘rsatilishi kerak. Lekin ko‘pchilik tadbirkorlik subyektlarini huquqiy savodxonligi

yetishmaydi. Mana shu imkoniyatni kredit shartnomasiga kiritmaydi. Bu esa, kredit muddatidan oldin qaytarilganda, ularga nisbatan jarima qo'llash uchun asos bo'ladi.

Tijorat banklari xorijdan jalb qilingan arzon kreditlarni qimmatlashtirib yubormoqda. Masalan, tijorat banki xorijdan AQSH dollarida 3% stavkada kredit oldi. Uni ustiga, 5-6 foiz qo'yadi. Natijada, xorijiy valyutadagi kreditlar qimmatlashib ketadi. O'zbekiston tijorat banklari xorijiy valyutada xorijiy banklardan jalb qiladigan kreditlarning foizini ustiga qo'yadigan foiz stavkalarini cheklash kerak. Masalan, dollardagi 1,5 — 2 foizli marja tijorat banklari uchun normal daromad darajasi hisoblanadi. Agar shu darajada cheklov o'rnatilsa, xorijiy valyutalardagi kreditlar respublikamizda qimmatlashib ketmaydi.

Respublikamizda inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atini yuqori ekanligi hamda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi kam ta'minlangan aholi qatlamida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga va tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining va tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkalari [12]

(foizda)

Ko'rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Inflyatsiya darajasi	15,2	11,1	10,0
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	16,0	14,0	14,0
Tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining foiz stavkasi	24,2	22,3	20,8

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda 2019-2021-yillarda inflyatsiya darajasini nisbatan yuqori bo'lganligi Markaziy bankka qayta moliyalash stavkasini sezilarli darajada pasaytirish imkonini bermagan. Ushbu ikkala omil mazkur davrda tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining foiz stavkalarini nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan.

Kam ta'minlangan aholi qatlamlarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolardan biri – bu aholini moliya bozori va moliya bozori instrumentlari to'g'risida yetarli bilimlarga ega emasligidir.

Kam ta'minlangan aholi qatlamlarining kredit turlari va shakllari to'g'risidagi bilimlari juda sayoz. Ularning kreditning har bir turi va shakliga xos bo'lgan xususiyatlarni bilishmaydi.

Hozirgi davrda tijorat banklari faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari mavjud: mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabalik kreditlash; kredit

liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash; overdraft usulida kreditlash; kontokorrent usulida kreditlash; kreditlashning faktoring shakli.

Shuningdek, kam ta‘minlangan aholi qatlamida valyuta bozori va sug‘urta bozorining moliyaviy instrumentlari to‘g‘risida ham yetarli nazariy bilimlar mavjud emas.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Kliring hisob-kitoblar asnosida QR-kodlar tizimi ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro tajribadan kelib chiqib, Markaziy bankning tezkor to‘lovlar tizimini joriy etishning mahalliy modeli ishlab chiqildi. Bu tizimni joriy etishdan maqsad – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan banklararo to‘lovlarni uzluksiz real vaqt rejimida amalga oshiradigan innovatsion to‘lov xizmatini yaratishdir. Moliya bozorining infratuzilmasiga to‘xtalganda, bankning risk-menejmenti (risklarni boshqarish) sifati masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Kredit tashkilotlarida potensial qarz oluvchilar to‘g‘risidagi axborotning yetishmasligiga barham berish, shuningdek, kredit bozorida raqobatni rivojlantirish maqsadida Kredit byurosi va kredit axboroti almashinuvi tizimi modernizatsiya qilindi. Ko‘plab tashkilotlarning ma‘lumotini qamrab olib, tahlil etuvchi kredit skoringi yo‘lga qo‘yildi. Yaratilgan shart-sharoitlar va moliya bozori mahsulotlaridan samarali foydalanish aholining moliyaviy savodxonligi darajasi va iste‘molchilar huquqlarining qanchalik himoya qilingani bilan bevosita bog‘liq. Ushbu omillar moliya muassasalari va mijozlarning istiqboldagi o‘zaro hamkorligiga asos bo‘ladi.

Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi, birinchi navbatda, biz O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini yangi tahrirda qabul qildik. Hujjatda moliya xizmatlari iste‘molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasiga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi. Endilikda qonunning bank talablariga muvofiq, xizmatlarni taqdim etish shartlari, jumladan, komission haqlar, tariflar va foiz stavkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bankning rasmiy veb-saytida majburiy tartibda joylashtiriladigan bo‘ldi. Shuningdek, banklarda koll-markazlarning bo‘lishi, veb-saytlarda iste‘molchilardan shikoyatlar qabul qilish vositalari bo‘lishi to‘g‘risidagi talablar belgilangan. Kreditlarning shartlarini taqqoslash uchun shart-sharoit yaratish hamda iste‘molchi uchun ma‘qul kreditni tanlash maqsadida kreditlarning asosiy ma‘lumotlari to‘g‘risidagi axborot varaqalari joriy etildi. Shu bilan birga, iste‘mol krediti va mikroqarzning to‘liq qiymatini hisoblash metodologiyasi ishlab chiqildi va yo‘lga qo‘yildi.

Iste‘molchilarga ortiqcha qarz yukini yuklamaslik maqsadida kredit tashkilotlariga mikroqarz kelishuvlari, shuningdek, lombardlar tomonidan yiliga qarz hajmining yarmidan ko‘proq summasida kelishilgan kredit kelishuvlari bo‘yicha foizlarni hisoblash, komissiya olish va neustoyka (shtraf, penya) qonunchilik asosida taqiqlangan. Shuningdek, banklar tomonidan kredit arizalarini ko‘rib chiqish uchun olinadigan turli komission to‘lovlar, ssuda hisob raqamlariga xizmat ko‘rsatish,

kreditlar ajratish hamda jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlarni (mikroqarzlarni) muddatidan oldin to'laganlik uchun neustoyka olish ta'qiqlandi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi barcha ko'riladigan choralar aholining xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ta'lim tadbirlari bilan birga olib boriladi. Bundan tashqari, biz kichik yoshdan boshlab, keksa yoshgacha uzluksiz ta'lim bilan ta'minlovchi hamda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish imkonini beruvchi tizimni yo'lga qo'yish uchun asos yaratish ustida ish olib borilmoqda. Shunday qilib, qisqa vaqt mobaynida moliyaviy ommaboplik sohasida ancha katta ishlar amalga oshirildi, ammo istiqbolida yana qilinadigan ishlar ko'p. Shu bois yaqin kelajakda bizning ustuvor yo'nalishlarimizni belgilab beruvchi strategiya ishlab chiqilmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishda kreditlash amaliyotini rivojlantirish borasida ijobiy siljishlar bilan bir qatorda muammo va kamchiliklar ham mavjud bo'lib, mamlakatimiz hukumati tomonidan ularni bartaraf etish yo'lida ko'plab chora-tadbirlar qo'llanib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlash amaliyotidan foydalanish borasida bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- aholini kreditlash amaliyotidagi umumiy muammolar (kreditlarning imtiyozli davrida foiz to'lovlarini to'lanayotganligi, tijorat banklari kredit oluvchi tadbirkorlik subyektiga ssuda schyoti ochgan kundan boshlab kreditga foiz hisoblashni boshlashi va boshqalar);

- respublikamizda inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi hamda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi natijasida kam ta'minlangan aholi qatlamining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga va tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga kelayotganligi;

- kam ta'minlangan aholi qatlamining moliya bozori va moliya bozori instrumentlari to'g'risida yetarli bilimlarga ega emasligi.

Kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlash tizimini takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

1. Kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun kreditlashning alohida tizimini shakllantirish lozim va ushbu kreditlash tizimini an'anaviy kreditlash tizimidan quyidagi jihatlari bilan farq qilishi lozim:

- kam ta'minlangan aholi qatlamiga mansub bo'lgan fuqarolarga berilgan imtiyozli kreditlarning imtiyozli davrida foiz to'lovi ham to'lanmasligi kerak;

- kreditlarni davlat mablagʻlari hisobidan bonifikatsiya qilish usuli keng qoʻllaniladigan usul boʻlishi kerak;

- kam taʼminlangan aholi qatlamiga beriladigan kreditlarning taʼminoti sifatida faqat uchinchi shaxsning kafilligidan va yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan korxonalarning kafolatlaridan foydalanish lozim.

2. Kam taʼminlangan aholi qatlamlarida tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil qilinadigan nazariy va amaliy mashgʻulotlarni yuqori darajada sifatli, qiziqarli va motivatsion ruhda tashkil qilishga eʼtiborni qaratish lozim.

3. Kam taʼminlangan aholi qatlamlarining moliya bozori va moliya instrumentlari toʻgʻrisidagi bilimlarini oshirish maqsadida yuqori bilim va malakaga ega boʻlgan mutaxassislarni jalb etish orqali maxsus moliyaviy savodxonlik kurslarini tashkil qilish lozim.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, kam taʼminlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida kreditlash amaliyotini yanada takomillashtirish mamlakatimizda biznes muhiti sifatining oshishiga va aholi daromadining yanada koʻpayishiga muhim turtki boʻla oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги ПҚ-4862-сонли қарори. Аҳолини тadbirkorликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тadbirkorликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида//www.lex.uz.

2. Шумпетер Й. Основы предпринимательства. Перс. с нем. – М.: Дело, 1974. – С.132

3. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Перс. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – С. 307

4. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.

5. Фигуровская Н. Современное состояние сельского хозяйства требует результативных действий государства//Экономист. – Москва, 2009. – №8. – С. 43.

6. Таджибаева. Д.А, Муминов. И.О. Микрофинансирование: руководство для микрофинансовых организаций//Тошкент: Молия, 2009. – С. 203.

7. Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 19-20.

8. Рахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида микромолиявий хизматларни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 16.

9. Урманова Н.Р. Перспективы развития микрофинансирования в Узбекистане. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Тошкент, 2012. – С.20.

10. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд.эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.29.

11. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари//www.cbu.uz

12. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари//www.cbu.uz